



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SANOAT VA SAVDO VAZIRLIGI

MINISTRY OF INVESTMENT, INDUSTRY AND TRADE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUYRUQ 56-i

«31 iyul 2023-yil

### **Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni talablariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (keying o'rnlarda - Vazirlik) tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarini rejali va to'g'ri tashkil etish maqsadida, **buyuraman**:

**1.** O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Quyidagilar:

Vazirlikda xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Vazirlik xarid komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Xarid komissiyasi (N.Xolmurodov) O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi va "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlari hamda davlat xaridlarini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat'iy rionga etgan holda davlat xaridlarini amalga oshirishni ta'minlasin.

**4.** Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining 2019-yil 3-maydag'i 222-p-son hamda 2021-yil 14-apreldagi 26-p-son buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**5.** Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish Vazirning birinchi o'rnbosari N.Xolmurodov zimmasiga yuklansin.

**Vazir**

**L.Kudratov**



Investitsiyalar, sanoat va savdo  
vazirining  
2023-yil “31” iyuldagি 56-son  
buyrug’iga  
1-ilova

**Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida xarid qilish tartib-  
taomillarini tashkil etish va o’tkazish tartibi to’g’risida**

**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida xarid qilish tartib-  
taomillarini tashkil etish va o’tkazish tartibi to’g’risidagi nizom (keyingi  
o’rinlarda “Nizom” deb yuritiladi), Investitsiyalar, sanoat va savdo  
vazirligining xarid faoliyatini tartibga soladi hamda xarid qilish tartib-  
taomillarini tashkil etish va o’tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizom O’zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari  
to’g’risida”gi Qonuniga (keyingi o’rinlarda “Qonun” deb yuritiladi) muvofiq  
ishlab chiqilgan.

**II. Asosiy tushunchalar**

3. Mazkur Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalilanadi:

**vakolatli shaxs** – Vazirlik nomidan vakolat berilgan Vazirning birinchi  
o’rnbosari;

**ixtisoslashgan tashkilot** - Vazirlikning topshirig’iga ko’ra tovarlarning  
(ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishni tashkil etish  
bo’yicha shartnomaga asosan pulli asosda xizmatlar ko’rsatish huquqiga ega  
bo’lgan yuridik shaxs.

**xarid qilish tartib-taomili** - tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib  
olishga qaratilgan qonun hujjalarda belgilangan tartibda amalga  
oshiriladigan harakatlar majmui;

**ekspert** - maslahat xizmatlarini ko’rsatish va (yoki) xulosa berish  
uchun davlat xaridlari predmeti bilan bog’liq sohada maxsus bilimlarga ega  
bo’lgan jismoniy shaxs.

**ekspert tashkiloti** - xodimlari maslahat xizmatlarini ko'rsatish va (yoki) xulosa berish uchun davlat xaridlari predmeti bilan bog'liq sohada maxsus bilimlarga ega bo'lgan yuridik shaxs

**yagona yetkazib beruvchi** - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yagona yetkazib beruvchi deb topilgan va Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchi.

### **III. Xarid komissiyasi va uning vazifalari**

**4. Xarid komissiyasi** - Qonun, xarid qilish tartib-taomillarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ushbu Nizom talablariga muvofiq xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish maqsadida Vazirlikning buyrug'i asosida shakllantiriladigan kollegial organ.

**5. Xarid komissiyasi** ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo'yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g'olibni (g'oliblarni) tanlashdan iborat.

**6. Xarid komissiyasi** quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflar ko'rib chiqish tartiblarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

**7. Xarid komissiyasi** xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida maslahat va (yoki) takliflarni ko'rib chiqish, baholash hamda taqqoslash bo'yicha xulosa olish uchun ekspertlar yoki

ekspert tashkilotlarini tegishli shartnoma asosida, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka riosa etgan holda jalg qilishga haqli.

8. Komissiya a'zolari, xarid tashabbuskorlari va xarid jarayonida ishtirok etuvchi Vazirlik xodimlari Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan xarid faoliyati normalari va qoidalariga qat'iy amal etishlari shart.

#### **IV. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari**

9. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

**a) elektron do'kon** - davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarni elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli.

Elektron do'konda:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining (keyingi o'rnlarda – BHM) 2 500,0 baravarigacha qiymatdagi **tovarlarning**;

bir shartnoma bo'yicha BHMning 50 baravarigacha qiymatdagi **ishlarning, xizmatlarning** davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin.

**ayni bir turdag'i tovarlarning** davlat xaridi bir moliya yili davomida BHMning 10 000,0 baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

**ayni bir turdag'i ishlarning, xizmatlarning** davlat xaridi bir moliya yili davomida BHMning 500,0 baravarigacha amalga oshirilishi mumkin.

**b) boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion** (keyingi o'rnlarda - auksion) davlat xaridlari elektron tizimining maxsus platformasida davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli bo'lib, uni tashkil etish chog'ida narx g'olibni aniqlashning yagona mezoni bo'ladi, bunda sifat standartlariga muvofiq bo'lgan tovarlarni yetkazib berish talabi bekor qilinmaydi.

Auksion vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa xususiyatlarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha BHMning 6 000,0 baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

**d) eng yaxshi takliflarni tanlash** (keyingi o'rnlarda - tanlash) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati bir shartnoma bo'yicha BHMning 6 000,0 baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Summasi bir shartnoma bo'yicha BHMning 25,0 baravari miqdoridan oshmaydigan tanlash xarid komissiyasining ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin, biroq bir moliya yilda BHMning 500,0 baravari miqdoridagi summadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Bunda g'olib tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'ltonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingen narxlarni solishtirish yo'li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial yetkazib beruvchilaridan narxlarni so'rash yo'li bilan aniqlanadi.

Rasmiylashtirilgan hujjatlar, tuzilgan shartnomalar va ularga doir qo'shimcha kelishuvlar to'g'risidagi axborot ular rasmiylashtirilgan yoki tuzilgan sanadan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

**e) tender** vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovarning (ishning, xizmatning) nafaqat pul bilan baholanishini, balki miqdoriy va sifat jihatidan baholanishini ham o'z ichiga oladi;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha BHMning 6 000,0 baravaridan ortiq miqdorni tashkil etadi.

Tanlash va tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

**f) to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar** bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari qonunchilikda belgilangan hollarda amalga oshiriladi.

## V. Xaridlarni rejalashtirish

**10.** Vazirlik xaridlarining yillik reja-jadvali (keyingi o'rinnarda – xarid rejasi) Ishlar boshqarmasi tomonidan shakllantiriladi.

**11.** Reja-jadvalni shakllantirishda Vazirlik tarkibiy bo'linmalarining ularga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ehtiyoji hisobga olinadi.

**12.** Reja-jadval, shuningdek, unga kiritilgan o'zgartirishlar Vazirlik rahbariyati yoki vakolatli shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

**13.** Kelgusi yil uchun reja-jadval joriy yilning 25-dekabriga qadar maxsus axborot portalida joylashtiriladi.

**14.** Reja-jadvalga quyidagi hollarda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, topshiriqlari Vazirlik tomonidan bajarilishi;

Vazirlikning tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojining oshishi.

**15.** Tasdiqlangan reja-jadval xaridlar amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

**16.** Vazirlik tomonidan amalga oshirilgan xaridlarning hisobi Ishlar boshqarmasi tomonidan yuritadi.

## **VI. Xarid qilish tartibi**

**17.** Elektron do'kon vositasi orqali va to'g'ridan-to'g'ri xaridlar (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda) Vazirlikning Ishlar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda Vazirlikning tashabbuskor tarkibiy bo'linmasi Ishlar, Moliya-iqtisod boshqarmasi hamda Vazirlik kotibiyati bilan kelishgan holda, Vazirga yoki vakolatli shaxs nomiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xaridini amalga oshirishga doir xizmat xati kiritadi.

Xaridni amalga oshirishga doir xizmat xatida tashabbuskor quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatadi:

    xarid maqsadi;

    xarid predmeti (nomi, miqdori, bozor tahliliga ko'ra taxminiy qiymati va xarid vositasining turi);

    zaruratga ko'ra qo'shimcha ma'lumotlar.

Vazir yoki vakolatli shaxs tomonidan xizmat xatida ko'satilgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xaridiga ruxsat berilgandan so'ng Ishlar boshqarmasi xarid qilish tartib tamoillarini amalga oshiradi.

**18.** Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender bo'yicha xaridlarni amalga oshirish to'g'risidagi qaror, xarid komissiyasining yig'ilishlarida ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi hamda yig'ilish bayonnomalari orqali rasmiylashtiriladi.

Xarid komissiyasining yig'ilish bayonnomalarida quyidagilar ko'satilgan bo'lishi kerak:

    Xarid qilish uchun mo'ljallangan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyoj to'g'risidagi ma'lumotlar va ularning boshlang'ich qiymati;

    xarid vositasining turi;

    tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xaridini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnik topshiriq va boshqa ma'lumotlar.

Rasmiylashtirilgan bayonnomalar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda maxsus elektron portalga joylashtiriladi.

**19.** Vazirlik xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazishni tashkil etish maqsadida ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilishi mumkin.

**20.** Ixtisoslashgan tashkilotni jalb qilish Qonunda belgilangan talablar va mezonlar asosida amalga oshiriladi.

**21.** Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa, xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'iy nazar tanlash orqali amalga oshiriladi.

Bunda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati 6 000,0 baravari miqdoridan oshgan hollarda davlat xaridiga doir texnik topshiriqlar qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertiza uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasiga kiritiladi.

**22.** Vazirlik nomidan maxsus axborot portaliga xaridlar bo'yicha e'lolar, reja-jadvallar, eng yaxshi takliflarni tanlash va tender hujjatlari, texnik topshiriqlar, tuzilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish, Vazirlikning buyrug'i asosida xarid qilish tartib-taomillarini tashkillashtirish vazifasi yuklangan Ishlar boshqarmasining mas'ul xodimi yoki ixtisoslashgan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

**23.** Mas'ul shaxs yoki ixtisoslashgan tashkilot maxsus axborot portalida elektron raqamli imzodan foydalanganligi uchun shaxsan javobgardir.

## VII. Yakuniy qoidalar

**24.** Davlat xaridlari subyektlari va ularning mansabdor shaxslari Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka riosa etilishi va shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

**25.** Xarid qilish jarayonida ishtirok etuvchi Vazirlik xodimlari xaridga ta'alauqli ma'lumotlarni oshkor qilganlik, tanlov ishtirokchilari bilan til biriktirishga yo'l qo'yanliklari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hujjatlarida, Vazirlikning ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa noqonuniy xatti-harakatlar uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining  
2023-yil 31-iyuldagি 564-son buyrug‘iga  
2-ilova

**Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Xarid komissiyasi  
TARKIBI**

Vazirning  
birinchi o‘rinbosari,  
*Xarid komissiyasi raisi*

 N.Xolmurodov


Loyihalarni TIA baholash, ekspertizadan  
o‘tkazish va tender savdolarini  
muvofiglashtirish boshqarmasi,  
*xarid komissiyasi raisi o‘rinbosari*

 M.Jakupov

Moliya-iqtisod  
boshqarmasi boshlig‘i

 M.Axmedjanova

AKT va raqamlashtirish  
boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari

 A.Axmedov

Ishlar  
boshqarmasi boshlig‘i

 U.Abidov

Buxgalteriya hisobi  
va hisoboti bo‘lim boshlig‘i

 I.Qarshiyev

Ishlar boshqarmasi  
kichik mutaxassisi

 N.Shakirova

*Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o’tganda uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangidan  
tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*